

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY
TAJRIBALARI**

Norova S.Yu.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O'zbekiston

PhD, e-mail: norova-s@mail.ru

Baqoeva Shaxnoza

M 51-23MNTguruh magistranti.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Норова С.Ю.

Бухарский инженерно-технологический институт, Узбекистан

PhD, e-mail: norova-s@mail.ru

Бакаева Шахноза

Магистр группы М 51-23MNT.

FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING INNOVATION ACTIVITIES

S.Yu.Norova.

Bukhara engineering technological institute

PhD, e-mail: norova-s@mail.ru

Bakaeva Shaxnoza

Master of group M 51-23MNT

Mamlakatimizda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda aholi hayot darajasi va farovonligining barqaror o'sishiga imkon beruvchi faol tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga, innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etishga, fan va innovatsion faoliyat jadal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. [1]. Yangi iste'molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni etkazib berish – innovatsiyaga misol bo'la oladi. Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi. [2].

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” soʻzidan olingan boʻlib, “yangilanish” (yoki “oʻzgarish”), “in” qoʻshimchasi esa lotinchadan “yoʻnalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” koʻrinishida tarjima qilsak – “oʻzgarishlar yoʻnalishida” deb izohlanadi. [3]. Innovation tushunchasi birinchi boʻlib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo boʻldi. “Innovatsiya” tushunchasi oʻzining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi oʻzgarishlar natijasida XX-asrning boshida Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. [4]. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qoʻllashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Innovatsiyalar – bu bilimlar va gʻoyalarni mablagʻlarga aylantirishdir. Ixtiro – bu yangi konsepsiyani yaratish demak. Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib koʻrsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish. [5]

“Innovatsiya” va “innovatsion jarayon” iqtisodiy kategoriyalari bir-biriga yaqin, ammo bir xil emas. Innovatsion jarayon - bu innovatsiyalarni yaratish, oʻzlashtirish va tarqatish kabi ketma-ket bosqichlar yigʻindisi, yaʼni takror ishlab chiqaruvchi innovatsiya tizimining zaruriy tarkibiy qismi. [6]. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy oʻsish, rivojlanish, tarkibiy siljishlar omilidir, balki ular barcha sohalarni, iqtisodiyot tarmoqlarini va umuman ijtimoiy hayotni qamrab olgan. [7]. Yozef Shumpeterning innovatsion nazariyasiga koʻra, innovatsiya yangi mahsulot ishlab chiqish, texnologik taraqqiyot va ishlab chiqarish usullarini takomillashtirishni oʻz ichiga olgan makroiqtisodiy ishlab chiqarish funksiyasini oʻzgartiruvchi omil hisoblanadi. Bundan tashqari, Y.Shumpeter isteʼmolchi tanlovidagi oʻzgarishlarni ham ishlab chiqarish funksiyalarining oʻzgarishi omili sifatida qaragan, yaʼni talab tomonidan taʼsir kuchi taklif tomoniga oʻtgan.[8]

Oʻzbekistonda innovatsion siyosatni takomillashtirish, ijtimoiy iqtisodiy tizimlarning innovatsion faolligini oshirish maqsadida bir qator meʼyoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi. [9].

Hozirda koʻplab iqtisodchi olimlar iqtisodiy oʻsishning omili sifatida fan, taʼlim va innovatsiyalarga alohida eʼtibor qaratishmoqda. Jahon mamlakatlari tajribasi innovatsion faollikni rivojlantirmasdan turib, barqaror rivojlanishga erishib boʻlmastligidan dalolat bermoqda. [10]. Shu sababli baʼzi bir rivojlangan mamlakatlarning innovatsion faoliyati xususiyatlarini koʻrib chiqamiz.

Global innovatsion indeks 2021 (GII 2021)da 132 ta mamlakat iqtisodiyotini 81 ta koʻrsatkich asosida oʻrganish asosida reyting koʻrsatkichlari aniqlandi. GII 2021 maʼlumotlariga koʻra, Shveysariya mamlakati reytingda peshqadamlik qilmoqda. Unday keyin reytingda Shvesiya, AQSh, BAA va Koreya mamlakatlari, shuningdek, Xitoy – 12 va Oʻzbekiston – 86 oʻrinni egallagan. [11].

Xitoy Xalq Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi maʼlumotlariga koʻra, 2021 yilda ITTKIga xarajatlar mamlakat YaIMga nisbatan 2,44 foizni tashkil qilgan. Bu xarajatlar qariyb 441,13 mlrd dollarni tashkil etadi. Xitoyda universitetlarga eʼtibor bundan 30 yil

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

oldin kuchaytirilib, fan va texnika yordamida davlatni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar amalga oshira boshlandi. 1979 yilda Xitoy xukumati universitetlar nafaqat ta'lim markazi balki, tadqiqot markazi ham bo'lishi lozimligi, ta'lim bilan birgalikda tadqiqotlar o'tkazishlari to'g'risida qaror qabul qiladi. 1995 yilda esa Xitoyning yangi ta'lim strategiyasi universitetlar iqtisodiy rivojlanishning tayanchi bo'lishi to'g'risidagi talabnomani ham keltirdi. Universitet, sanoat korxonalari hamda tadqiqot markazlari o'rtasidagi aloqalar kuchaytirildi, hozirda deyarli barcha universitetlarda kichik korxonalarning inkubatorlari faoliyat yuritmoqda. E'tiborli tomoni shundaki, nanotexnologiyalar va yuqori texnologiyalar sohasidagi etakchi korxonalarning aksariyati universitetlar negizida rivojlanmoqda. [12]. Xitoy milliy innovatsiyalar tizimida universitetlarning roli quyidagicha:

fan va texnika sohasidagi ilg'or tadqiqotlar;

texnologiyalarni uzatish va tadbirkorlarni tarbiyalash;

butun umr davomidagi uzluksiz ta'lim;

innovatsion klasterlarni rivojlantirish maqsadida sanoat bilan hamkorlik.

Ayni vaqtda 50 dan ortiq yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat klasterlari universitetlar bilan chambarchas bog'langan xolda faoliyat yuritmoqda. [13].

AQSh milliy innovatsion tizimi (MIT) biznes, fan va innovatsiyalarning o'zaro aloqadorligi asosida yaratilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin kollejlar, universitet va ilmiy tadqiqot institutlarida fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish maqsadida davlat agentligi tashkil qilindi. [14]. Buning natijasida 1950 yilda Milliy ilmiy fond tashkil qilinib, uning asosiy vazifasi etib – ilm fan taraqqiyoti, milliy boylik, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish va milliy xavfsizlikni ta'minlash belgilandi.[6]

AQSh MITning o'ziga xos jihati shundaki, u intellektual mulkni himoyalashga qaratilgan. Patent va savdo markalari to'g'risidagi Bey-Doul qonuni davlat moliyalashtiruvini asosida tadqiqotlar o'tkazuvchi universitet va boshqa tijorat korxonalariga yaratgan ixtirolariga nisbatan egalik huquqini saqlash imkonini berdi. [15]. Texnologik innovatsiyalar to'g'risidagi Stivenston-Uaydler qonuni xususiy korxonalar va milliy laboratoriyalarning hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlari jarayonida yaratilgan kashfiyotlarga bo'lgan egalik huquqini aniqlab berdi. Ushbu qonun bo'yicha federal hukumat tarkibida texnologiyalar transferini amalga oshirish maqsadida fond tashkil etildi, laboratoriyalar texnologiyalarni tijoratlashtirish ofislarini ochdi.

Shveysariya Yevropada joylashgan sal kam 9 millionlik aholiga ega bo'lgan, kichik bir tog'lik, boy foydali qazilmalarga hamda dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mamlakat bo'lsada, Jahon intellektual mulk agentligining reytingiga ko'ra 2011 yildan boshlab hozirgi kunga qadar, Yevropa mamlakatlari o'rtasida innovatsiyalar sohasida peshqadam bo'lib kelmoqda. Aynan ushbu mamlakatda dunyodagi eng katta tajriba qurilmasi – Katta adronli kollayder joylashgan bo'lib, uning har bir million aholisiga – 873 ta patent talabnomasi to'g'ri keladi. Bundan tashqari, jahon OTM reytingida Shveysariya universitetlari yuqori

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

ko'rsatkichlarga ega, misol uchun 2016 yilda Syurix oliy texnika maktabi Oksford, Kembridj va London Impersk kollejidan keyin 4 o'rinni egallagan .

Shveysariya milliy innovatsion tizimi raqobatbardoshligi omillari:

ITTKLlga xarajatlarning yuqori darajasi(YaIMga nisbatan 3,24%);

Malakali kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimiga qilinayotgan ajratmalar darajasi(YaIMga nisbatan 5,6%);

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda xizmat ko'rsatish uchun etarli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan malakali ishchi va ilmiy texnik xodimlarni tayyorlovchi maktabdan keyingi dual ta'lim tizimining mavjudligi; [16].

Innovatsiyalarga moslashuvchanlik darajasining tezligi;

Universitetlar hamda tadbirkorlar o'rtasidagi faol hamkorlik;

Davlat boshqaruvi xodimlari sonining kamligi va ularning biznes vakillariga do'stona munosabati. [17].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda innovatsion faollikni oshirish asosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida xorijiy mamlakatlar tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3697-sonli qarori.

2. И.Н.Шумпетер Теория экономического развития. Москва, 2010. - 344 с.

3. Мамутов В.К. Правовое обеспечение инновационной деятельности Экономика региона, издательство Института экономики Уралского отделения РАН, г. Екатеринбург- 2009.-№ 4.-С.51-56.

4. Norov A.E. Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil 1/2020 (№ 00045) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 118

5. About the National Science Foundation // National Science Foundation (NSF). 2021. URL: <http://www.nsf.gov/about/>

6. Норова С.Ю.Факторы инновационного развития в экономике Узбекистана. «Интернаука» научный журнал, № 22(104) июн 2019 г. част 2. 92-94 стр.

7. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – Т. 3. – №. 2. View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS (sciencesage.info)

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

8. Musayeva J. K. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O 'RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 4. – С. 554-564.
9. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – T. 8. – №. 5. View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View
10. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – С. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615> DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>
11. Musayeva J.K. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda korxona aktivlarini boshqarish, globallashtirish va integratsiya jarayonlarining ta'siri. СОЛИҚ ВА ҲАЁТ ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ОММАБОП ЖУРНАЛ, II СОН. 2023, 13-19-bet
12. Mukhsinov B., Yuldasheva S. Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //issn. – 2005. – T. 4238. – С. 1922-1926.
13. Musaeva J.K. Evaluation of the fixed capital of enterprises and the main ways of their effective use. "ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ" илмий электрон журнали. 2022 ЙИЛ 2 СОН. 70-77 bet
14. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. Қ. КОРХОНАЛАРНИНГ АСОСИЙ КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 200-217.
15. Мусаева Ж. К. ОЦЕНКА ОСНОВНОГО КАПИТАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ И ОСНОВНЫЕ ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ //Журнал Инновации в Экономике. – 2022. – T. 5. – №. 3.
16. Karomatovna M. J. Efficiency of introducing innovative approaches in higher education in uzbekistan //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 1266-1275.
17. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.